**Oliy attestatsiya komissiyasining**
**2024 yil (yanvar-dekabr) faoliyati natijalari boʻyicha**
**maʼlumotnoma**

1. 2024 yilda **4046 nafar** tadqiqotchi **ilmiy darajada tasdiqlandi**. Shundan, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega boʻlganlar soni **3493 nafar**ni, fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega boʻlganlar soni **553 nafarni** tashkil etdi.

**KPI koʻrsatkichi** ilmiy darajalar boʻyicha **104 foiz**ni, jumladan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi boʻyicha **103 foiz**ni, fan doktori (DSc) ilmiy darajasi boʻyicha **111 foiz**ni tashkil etdi.

Himoya qilingan dissertatsiyalar (100%) ilmiy natijalarining **amaliyotga joriy qilinishi** tashkil qilingan.

2. Shu davrda **3893 nafar** talabgor ilmiy unvonda, jumladan **809 nafari** professor, **2901 nafari** dotsent va **183 nafari** katta ilmiy xodim va **unvonlarida tasdiqlandi**.

KPI koʻrsatkichi ilmiy unvonlar boʻyicha **102 foiz**ni, jumladan professor ilmiy unvoni boʻyicha **102 foiz**ni va dotsent ilmiy unvoni boʻyicha **102 foiz**ni tashkil etdi.

3. Xorijiy davlatlar muassasalari tomonidan berilgan **70 ta** ilmiy darajalar diplomlari (**25 tasi** fan nomzodi, **45 tasi** falsafa doktori (PhD)) **nostrifikatsiya** qilishni tashkil etildi.

4. Xorijiy davlatlarda ilmiy darajalar toʻgʻrisida berilgan **30 ta** falsafa doktori diplomi **toʻgʻridan-toʻgʻri fan doktori** sifatida **tan olinishi** tashkil qilindi.

5. **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** (my.gov.uz) orqali davlat namunasidagi ilmiy daraja olinganligi toʻgʻrisidagi diplom yoki ilmiy unvon olinganligi toʻgʻrisidagi attestat maʼlumotlarini oʻz ichiga olgan elektron koʻrinishdagi **QR-kod qoʻyilgan hujjatni taqdim** etish xizmati ishga tushirildi.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning barcha murojaatlariga (**100%**) **oʻz vaqtida javob berilishi taʼminlandi (573 ta**, jumladan **7 ta** ogʻzaki hamda **566 ta** yozma murojaat).

7. Ilmiy jamoatchilik bilan **12 ta** hududda **37 ta** uchrashuv tashkil etildi va sayyor qabullar amalga oshirildi. Uchrashuvlarda **2 270 nafar** ilmiy jamoatchilik (**1484 nafari 35** yoshgacha) ishtirok etib, **520 ta** savolga tushuntirishlar berildi, **77** nafar shaxsga joyida uslubiy yordam koʻrsatildi va sayyor qabullarda **86 nafar** shaxsga joyida amaliy yordam berildi.